

SAMARQANDDAGI ABRAMOV MAYDONI (BULVAR) TARIXI

Qurbonov Anvar

Oriental universiteti Samarqand kampusi ilmiy tadqiqotchisi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Samarqanddagi Abramov maydoni haqidagi asosiy davri inqilobdan keyingi yillar haqidagi ma’lumotlar yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *“Rus Samarqandi”, Samarqandning keng ko’chalari, ma’muriy binolar, o’quv yurtlari, banklar, davlat uylari va ibodatxonalari.*

Samarqand O‘zbekistonning eng qadimiy shaharlaridan biri bo‘lib, uning tarixi 2750-yildan beri davom etib kelmoqda. U qadimgi Afrosiyobdan Temuriylar saltanati poytaxtigacha bo‘lgan yo‘lni bosib o‘tib, madaniyat, savdo va me’morchilikning yirik markaziga aylandi. Biroq an’anaviy sharqona qiyofa shaharning ko‘p qatlamli tarixining faqat bir qismini tashkil etadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Samarqand tarixida yangi sahifa ochildi. Shahar Rossiya imperiyasi tomonidan bosib olinib, mustamlakachilar tomonidan Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgach, shaharning tarixiy markazi yonida “Rus Samarqandi” deb atalgan yangi qism shakllana boshladi. Dastlab podsho qo‘shinlari eski loy qal’aga joylashdi. Ammo tez orada uning qayta qurish boshlandi va bu yangi shahar qurilishining boshlang‘ich nuqtasiga aylandi. O‘zgarishlar tashabbuskori Turkistonning birinchi general-gubernatori Konstantin fon Kaufman edi. U 1870-yili yangi Samarqandning zamonaviy qiyofasiga asos solgan bosh rejani tasdiqlaydi. Shu tariqa keng ko‘chalar, ma’muriy binolar, o‘quv yurtlari, banklar, davlat uylari va ibodatxonalardan iborat bilan “yevropacha” Samarqand vujudga keladi.

Samarqandni yashil xiyobonlarsiz, keng shox-shabballari yoyilgan baland daraxtlarsiz, soya-salqin yo‘laklarsiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. XIX asrning so‘nggi o‘n yilliklarida, shahar Turkiston general-gubernatorligining muhim markaziga aylangach, nafaqat ma’muriy binolar qurilishiga, balki ko‘kalamzorlashtirish ishlariga ham alohida e’tibor qaratilgan. Samarqandning yangi qismidagi nisbatan kichik hududda bir vaqtning o‘zida beshta yashil bog‘ va xiyobon barpo etilgan. Ularning uchasi hozirgacha saqlanib qolgan va kengayishda davom etyapti.

Samarqandning markaziy xiyoboni eski sharqona va yangi ruscha shahar o‘rtasidagi ramziy chegaraga aylangan. U bir vaqtlar Amir Temurning qadimiy qal’asi joylashgan joydan boshlanadi. Abramov xiyoboni “yevropacha” Samarqandning asosini tashkil etuvchi ko‘chalarning radial rejasiga asos solgan.

Xiyobon 1880-yillarning boshida barpo etilgan va dastlab general-gubernator Aleksandr Abramov nomi bilan atalgan. Xiyobonning uzunligi taxminan bir kilometr bo‘lib, uchta daraxtzor va ikki yo‘lni o‘z ichiga olgan. Botanik, bog‘bon va vizioner Mixail Ivanovich Nevesskiy bu jonli makonning o‘ziga xos me’mori bo‘lgan. Aynan u Samarqandning bo‘lajak yashil manzarasini belgilab bergan edi.

Neveskiy o‘zining tarixiy uslubdagi kichik dala-hovlisini to‘g‘ridan-to‘g‘ri shahar ko‘chatzori ichiga qurgan edi. Uy nafaqat yashash uchun, balki ochiq osmon ostidagi botanika laboratoriyasining bir qismi sifatida mo‘ljallangan edi. Eski shahar va yangi mavzelar o‘rtasidagi cho‘l kabi bo‘shliqlarni jonli yashil mintaqaga aylantirish uchun Neveskiy butun bir ko‘kalamzorlashtirish tizimini ishlab chiqdi. U butun dunyodan ko‘chatlar buyurtma qildi, daraxt turlari ustida tajribalar o‘tkazdi va ularni maxsus tashkil etilgan ko‘chatzorda yetishtirdi. Uning qariyb 30 yillik tinimsiz mehnati tufayli Samarqand o‘zining “o‘pkasi”ga — yuzlab daraxtlar yashilligiga burkangan xiyobonga ega bo‘ldi.

Vaqt o‘tishi bilan xiyobon bir necha bor o‘z nomini o‘zgartirdi: Umumta’lim xiyoboni, keyin Gorkiy nomidagi xiyobon, Mustaqillik yillariga kelib — Universitet xiyoboni. Bugungi kunda bu yerda eman, qarag‘ay, chinor, katalpa daraxtlari, shuningdek, hozirgacha O‘zbekiston tabiatining botanik yodgorligi hisoblanayotgan noyob Livan kedri o‘sadi. Ko‘p yillik daraxtlarning shox-shabballari xiyobonlar ustida birlashib, sersoya “yashil galereya” hosil qiladi, shu sababli ham issiq kunlarda bu yerda havo harorati shaharning qolgan qismiga qaraganda bir necha daraja past bo‘ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. D.A.Alimova, Y.F. Buryakov, Sh.M.Rahmatullayev “Samarqand tarixi (Qadimgi davrdan hozirgi kungacha)” T: “ART FLEX” 2009. 44-bet.
2. O‘zbekiston tarixi. IX jild. Samarqand tarixi. Mas’ul muxarrir B.S.G‘oibov Toshkent: “O‘zbekiston” 2023. 472 b.